

Date: 13th June-2026

MEHMONXONA BIZNESINING HUDUDIY TURIZM RIVOJIDAGI ROLI

Azimxonova Sevara

Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumi o'qituvchisi

sevaraazimxonova@gmail.com

Bo'riyeva Xadicha

Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumi

1-bosqich talabasi hadichaboriyeva9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehmonxona biznesining hududiy turizm infratuzilmasi va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Mehmondo'stlik industriyasining bandlikni ta'minlash, hududiy yalpi mahsulotni oshirish va multiplikativ samaradorligi ochib berilib, O'zbekiston hududlarining turistik jozibadorligini yuksaltirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, mehmonxona, multiplikativ effekt, mehmondo'stlik industriyasi, bandlik, infratuzilma, investitsiya.

Abstract: This article analyzes the role of the hotel business in developing regional tourism infrastructure and the local economy. It highlights the hospitality industry's socioeconomic impacts, specifically in ensuring employment, increasing regional gross product, and generating a multiplicative effect. Furthermore, the paper puts forward practical recommendations aimed at enhancing the tourist attractiveness of Uzbekistan's regions.

Keywords: Tourism, hotel, multiplicative effect, hospitality industry, employment, infrastructure, investment.

So'nggi yillarda turizm jahon iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib kelmoqda. Turizm industriyasining moddiy-texnik asosi va uning hududiy miqyosda muvaffaqiyat qozonishini belgilovchi eng muhim drayverlardan biri — mehmonxona xo'jaligidir. Mehmonxona biznesi shunchaki vaqtinchalik yashash joyi emas, balki hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish va aholining ijtimoiy farovonligini oshirishda strategik rol o'ynaydi. Shu bois, muayyan hududning turistik salohiyatini baholashda u yerdagi mehmonxonalar fondi va ularning iqtisodiy faolligi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Buning isboti tariqasida bir qator O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarini keltirish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 05.01.2019 yildagi PQ-4095-sonli qarori¹⁹. Ushbu qarorda Respublika bo'ylab zamonaviy mehmonxonalar va joylashtirish vositalarini qurish, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda mehmonxona biznesiga subsidiyalar ajratish tartibi belgilagan.

¹⁹ <https://lex.uz>



Date: 13th June-2026



Mehmonxona biznesining hududiy turizm o'sishidagi iqtisodiy va ijtimoiy rolini baholashda, birinchi navbatda, uning makroiqtisodiy jarayonlarga ko'rsatadigan multiplikativ, ya'ni zanjirli ta'sir effektiga e'tibor qaratish lozim. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi va xalqaro tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, mehmondo'stlik industriyasiga yo'naltirilgan sarmoyalar yoki hududga kelgan sayyohlar tomonidan mehmonxonalarda sarflangan mablag'lar iqtisodiyotning yondosh tarmoqlari bo'lgan qishloq xo'jaligi, transport, umumiy ovqatlanish va ichki ishlab chiqarishni ham zanjirsimon tarzda harakatga keltiradi²⁰. O'zbekiston kontekstida ushbu multiplikativ zanjirni yanada mustahkamlash va mahalliy biznesni rag'batlantirish maqsadida davlat rahbari tomonidan strategik choralar ko'rilmogda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mehmondo'stlik sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qarorlariga muvofiq, xususan turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlarga budjetga to'langan soliqning 20 foizini qaytarish hamda servis kompaniyalari uchun ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdorida qoldirish kabi tizimli soliq imtiyozlari joriy etildi²¹. Bunday iqtisodiy yengilliklar hududiy budjet tushumlarining ko'payishiga hamda xalqaro nufuzli mehmonxona brendlarining mahalliy bozorlarga to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishiga yo'l ochmogda.

Shu bilan birga, mehmonxona xo'jaligining hududiy ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, ayniqsa, aholi bandligini oshirishdagi o'rni beqiyos hisoblanadi. Mehmondo'stlik sohasi tabiatan yuqori mehnat talab tarmoq hisoblangani sababli, unda texnologiyalar rivojlansa-da, jonli muloqot va servis xizmati ko'rsatishda inson omili birlamchi bo'lib qoladi, bu esa har bir yangi korxona hisobiga yoshlar va xotin-qizlar uchun yuzlab yangi barqaror ish o'rinlari yaratilishini anglatadi. Davlatimiz rahbarining hududlar kesimida turizm infratuzilmasini kengaytirishga doir dasturlarida joylarda mehmonxonalarini toifaga ega bo'lishini rag'batlantirish va ularning moddiy-technika bazasini mustahkamlash xarajatlarini davlat tomonidan qisman qoplab berish mexanizmi belgilangan²² bo'lib, bu chora hududiy infratuzilmani tubdan yaxshilash va aholi yashash sharoitlarini bilvositiya transformatsiya qilish imkonini bermogda. Zero, hududiy turizmga talab va taklif muvozanatini shakllantirish bevosita mehmonxona xizmatlarining sifati, "Front Office" tizimining xalqaro andozalarga mosligi va umumiy mehmondo'stlik infratuzilmasining tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'lib, bu omillar pirovardida butun mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini va iqtisodiy salohiyatini belgilab beradi²³.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mehmonxona biznesi hududiy turizm rivojining shunchaki tarkibiy qismi emas, balki uning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy poydevordir. Mehmonxonalar tarmog'ining kengayishi hududga xorijiy va mahalliy kapitalning oqib kelishini tezlashtiradi, yangi ish o'rinlari hisobiga ishsizlik darajasini kamaytiradi va yondosh tarmoqlarni harakatga keltirib, hududiy yalpi mahsulot o'sishiga

²⁰ Inlibrary.uz

²¹ <https://kapital.uz>

²² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.09.2024 yildagi 550-son

²³ Jang, S., Tang, C. H., & Chen, M. H. Financing behaviors of hotel companies // International Journal of Hospitality Management & Slideshare Professional Materials

Date: 13th June-2026

xizmat qiladi. Hududiy turizm rivojida mehmonxona biznesi samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar:

- "Kichik turizm klasterlari" tamoyili asosida har bir viloyat yoki tumanning o'ziga xosligidan kelib chiqib, mehmonxona infratuzilmasini aynan o'sha

yo'nalishga moslashtirish va mahalliy hunarmandlar hamda fermerlar bilan to'g'ridan-to'g'ri ta'minot zanjirini yo'lga qo'yish.

- Mehmonxonalarni mahalliy transport, gidlari va muzeylar platformalari bilan yagona raqamli tizimga bog'lash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 05.01.2019 yildagi PQ-4095-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.09.2024 yildagi 550-son
3. Jang, S., Tang, C. H., & Chen, M. H. Financing behaviors of hotel companies // International Journal of Hospitality Management & Slideshare Professional Materials.

INTERNET SAYTLARI:

1. <https://lex.uz>
2. <https://inlibrary.uz/>
3. <https://kapital.uz>
4. <https://www.unwto.org/>